

YALPIZNAMOLAR QABILASIGA TASNIF

Abdulhamidova Zulfira Xurshidbek qizi

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya
yo'nalishi 202-guruh talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7980665>

Annotatsiya: Yerdagi hayotni o'simliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular odamlar va atrof-muhit uchun juda muhimdir. O'zbekistonda ikki mingga yaqin o'simlik turi xalq tabobatida turli darajada qo'llaniladi. Bu tezisdagi Yalpiznamo qabilasiga mansub o'simliklar va ular haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yalpiz, yalpiz, yalpiz, limon o'ti, tog' rayhon, marmarak, mavrak, mentol.

Yalpiznomalar qabilasi asosan bir yillik va ko'p yillik o't, yarim buta, kamdan-kam tropik mamlakatlarda o'sadigan buta va daraxtlardan iborat. Qabilaning tarkibidagi oilalardan biri Yalpizdoshlar oilasidir. Bu oilaga 200 turkum, 3500 tur o'simlik kiradi. O'rta Osiyoda 53 turkum 360 ta tur o'simlik O'zbekistonda 38 turkumga oid 214 turi o'sadi. Boshqa manbalarda esa O'zbekistonda Yalpizdoshlarning 42 turkumga oid 210 ta turi borligi ta'kitlab o'tilgan. Farg'ona vodiysida 26 turkumga oid 59 ta turi uchraydi.

Oila vakillarining poyasi 4 qirrali, barglari oddiy, poyada qarama-qarshi joylashgan. Gultojibarglari ikki labli, ustki labi 2 ta, ostida 3 ta gultojibargdan iborat. Changchilari 4 ta ba'zan 2 ta, urug'chisi 2 ta. Gullari ro'vak, shingil, kallak to'pgul hosil qiladigan ikki jinsli o'simlik. Gul formulasi: $Ca(5), CO(2+3), A4, 2G(2)$. Mevasi yang'oqcha meva. Bu oila yalpiznamolar qabilasiga mansub yer yuzidagi eng yirik oilalaridan hisoblanadi. Uning vakillari asosan, issiq vva mo'tadil iqlimli mamlakatlarda ko'p uchraydi. Yalpizdoshlar oilasining limon o't, marmarak, mavrak, tog' rayhon, yalpiz kabi vakillari tabobatda, oziq-ovqatda keng ishlatiladi.

1 rasm. Yalpiz[6]

Yalpiz turkum. Ko'p yillik o'simlik bo'lib, tarkibida efir moyi ko'p miqdorda uchraydi. Zax yerlarda, ariq va kanal boylarida tarqalgan. O'zbekistonda Osiyo yalpizi uchraydi. Yalpizning O'zbekistonda 45 ta turi o'sadi. Yalpizdab olinadigan mentol atir-upa tayyorlashda, oziq-ovqat sanoatida foydalaniladi. Bu o'simlik bosh og'rig'ini, tish og'rig'ini davolashda qo'llaniladi.



Oddiy rayhon bir yillik o't o'simlik.Uning oq rayhon, qora rayhon, osh rayhon kabi turlari ko'p uchraydi. Ular ziravor va xushboy o'simlik sifatida ekiladi. Rayhonni dorivorligi maqsadida ko'p hovlilarda ekiladi. Ovqatlarga solinadi.

Yalpiznamolar qabilasi vakillari orasida dorivor o'simliklar ko'p uchraydi. Insonlar uchun bu xususiyat katta foyda bo'lgan. Tabobatda keng qo'llaniladi va foydasi sezilarli darajada ahamiyatli. Shunga qaramay ko'p o'simliklarning dorivorlik xususiyatlari aniqlanmagan.

References:

1. O'.Pratov, Q.Jumayev, "Yuksak o'simliklar sistematikasi"
2. O'.Pratov, "Botanika, Morfalogiya, Anatomiya, Sistematika, Geobotanika"
3. Arxiv.uz
4. Fayllar.org
5. Botany.ru
6. ok-ru



INNOVATIVE
ACADEMY